

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil).– 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Do'simov Shohruh

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 5-10

FILOLOGIYA FANLARI

Zayniddinova Sevinch

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO'ZNING MOHIYATI 11-14

Pulatova Asal

O'ZBEK XALQI MENTALITETIDAGI ASOSIY QADRIYATLARNI
IFODALOVCHI KONSEPTLAR 15-18

Burxonova Gulmira

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI
SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI 19-23

Nosirova Shoiraxon

INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA
KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI 24-28

Султонова Лолахон

ПОЭТИКА УМОЛЧАНИЯ И ВЫТЕСНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ТРАВМАТИЧЕСКОЙ
ПАМЯТИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО "ОСТАТОК ДНЯ") 29-33

YURIDIK FANLAR

Kalimbetov Nesip

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI
KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI 34-38

PEDAGOGIKA FANLARI

Tojiboyeva Shohistaxon

LINGVODIDAKTIK RESURSLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI
RIVOJLANTIRISH MODELI 39-41

Баймуратова Ирина

ПРИМЕНЕНИЕ ИИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ЯДЕРНАЯ МЕДИЦИНА И
РАДИАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ 42-44

Zokirova Ma'suma

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI 45-49

Maxkamova Husnida

XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITI" TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK
FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI 50-54

Qo'chqarov Bahodir

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 55-60

Adasheva Xilola

TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIDA YASHASHIGA
ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHNING HOLATI 61-66

Abduqahhorova Mahliyo

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI T

AKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI 67-70

YURIDIK FANLAR

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI**Kalimbetov Nesip Abdullayevich**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi Taxiatosh tumani adliya bo'limi boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: kalimbetovnesip@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining «Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida»gi Qonuni 9-moddasiga kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqot davomida zo'rvonlik qurbonlari, mehnat migrantlari, yetim bolalar, mahkumlar va keksa yoshdagi shaxslarning yuridik yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati asoslab berilgan. Maqolada Ispaniya, Fransiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (ECHR) va BMT standartlari qiyosiy o'rganilgan. Muallif tomonidan ijtimoiy zaif qatlamlarni byurokratik to'siqlarsiz himoya qilish va nodavlat notijorat tashkilotlariga yuridik ko'mak berishning huquqiy mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar. yuridik yordam, zo'rvonlik qurbonlari, mehnat migrantlari, ijtimoiy himoya, advokatura, inson huquqlari, ECHR, BMT standartlari, ijtimoiy moslashuv, NNT.

THE SIGNIFICANCE OF EXPANDING THE SCOPE OF BENEFICIARIES OF STATE-FUNDED LEGAL AID IN ENSURING THE PROTECTION OF HUMAN RIGHTS**Kalimbetov Nesip Abdullaevich**

Head of the Justice Department of Takhiatash District of the Ministry of Justice of the Republic of Karakalpakstan,

Independent applicant of the Training institute for lawyers under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

Annotation. This article scientifically analyzes the amendments and additions to be introduced to Article 9 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Provision of Legal Aid at the Expense of the State." The research justifies the necessity of expanding access to legal aid for victims of violence, labor migrants, orphans, prisoners, and the elderly. The article comparatively studies the experiences of developed countries such as Spain, France, and South Korea, as well as the standards of the European Court of Human Rights (ECHR) and the UN. The author proposes legal mechanisms for protecting socially vulnerable groups without bureaucratic barriers and providing legal support to non-governmental non-profit organizations.

Keywords: legal aid, victims of violence, labor migrants, social protection, advocacy, human rights, ECHR, UN standards, social adaptation, NGO.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i7/n07>

KIRISH

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanayotgan har qanday jamiyatning bosh maqsadi hisoblanadi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **1-moddasida** mamlakatimizning "ijtimoiy

davlat" ekanligi mustahkamlandi, bu esa davlat zimmasiga jamiyatning zaif qatlamlarini har tomonlama himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Xususan, Konstitutsiyaning **26-moddasida** har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi hamda qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatilishi belgilab qo'yilgan [1].

Biroq, xalqaro huquqiy standartlar, jumladan, BMTning "Odil sudlovga erishish to'g'risida"gi tamoyillari shuni anglatadiki, yuridik yordam nafaqat jinoiy ishlarida, balki shaxsning hayotiy muhim manfaatlariga daxl qiluvchi fuqarolik, mehnat va ma'muriy nizolarda ham tizimli ravishda ta'minlanishi lozim [3]. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi 2023-yil 16-iyun kungi O'RQ-848-son Qonuni bu borada yangi huquqiy institut bo'lsa-da, amaliyotda "yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar" doirasini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda [2].

Bugungi kunda gender zo'ravonligi qurbonlarining iqtisodiy qaramligi, keksalarning mulkiy nizolardagi zaifligi hamda mehnat migrantlarining huquqiy himoyasizligi kabi ijtimoiy omillar yuridik yordam ko'rsatish mezonlarini faqatgina "kam ta'minlanganlik" darajasi bilan cheklab bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (ECHR) pretsedentlarida ta'kidlanganidek, yuridik yordam berishda shaxsning ishi murakkabligi va uning o'z huquqlarini mustaqil himoya qila olish imkoniyati (vulnerability) asosiy mezon bo'lishi shart [4]. Shu sababli, milliy qonunchilikning 9-moddasini takomillashtirish orqali sub'ektlar doirasini kengaytirish, ijtimoiy adolatni ta'minlashning eng muhim shartidir.

Demokratik huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri — bu fuqarolarning jinsi, yoshi, ijtimoiy ahvoli va jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar odil sudlovga erishish (Access to Justice) imkoniyatini ta'minlashdir. Shu sababli ayrim zaif guruhlariga davlat hisobidan yuridik yordam oluvchi sub'ektlar ro'yxatidan chetda qoldirmaslik hamda ularga yordam ko'rsatish mezonlari haddan tashqari byurokratizatsiyalashganlik darajasini maksimal kamaytirish choralarini izlash zarur.

Mazkur maqolaning dolzarbligi "Samarali adolatga kirish" tamoyili asosida sub'ektlar doirasini kengaytirish va xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarurati bilan belgilanadi.

Ijtimoiy zaif qatlamlarni himoya qilishning aktualligi shundaki O'RQ-848-son Qonunning 9-moddasiga yangi toifadagi shaxslarni kiritish zaruratini keltirib chiqaradi va "teng imkoniyatlar" (Equality of Arms) tamoyiliga asoslanadi. Bugungi kunda "ijtimoiy zaiflik" tushunchasi faqatgina moddiy yetishmovchilik bilan cheklanmaydi. Bu tushuncha o'z ichiga "**ijtimoiy istisno**" holatini ham oladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqatgina daromad darajasi shaxsning yuridik yordamga muhtojligini belgilovchi yagona mezon bo'la olmaydi.

Bir so'z bilan aytganda Ijtimoiy zaiflik — bu shaxs yoki guruhning tashqi salbiy ta'sirlarga bardosh bera olmaslik darajasidir. Bu nafaqat iqtisodiy yetishmovchilik balki iqtisodiy qaramlik, kasallik, ishsizlik, tengsizlik, til bilmaslik va hokazolar kiradi.

Xususan, **tazyiq va zo'ravonlik qurbonlari** masalasida iqtisodiy qaramlik omili shaxsni himoyasiz qoldiradi. Ispaniyaning "Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kompleks himoya to'g'risida"gi Qonunida (Organic Law 1/2004) jabrlanuvchining moddiy ahvolidan qat'i nazar unga bepul advokat tayinlanishi belgilangan [5]. Buning ilmiy asosi shundaki, tajovuzkor ko'pincha oilaviy budjetni nazorat qiladi va jabrlanuvchining yurist yollash imkoniyatini bo'g'adi. Fransiya tajribasida ham zo'ravonlik qurbonlari uchun "yuridik yordamning prezumpsiyasi"

(presumption of eligibility) mavjud bo'lib, bu ularni byurokratik isbotlash jarayonidan xalos etadi [4].

Yana bir muhim qadam bo'lib bunda **yetim bolalar va mehnat migrantlarining** ijtimoiy moslashuv va himoyadagi zaifligini ham keltirish mumkun.

Voyaga yetmaganlar, ayniqsa, **yetim bolalar va vasiylikdagi yoshlarning** 18 yoshdan keyingi huquqiy taqdiri jiddiy xavotir uyg'otadi. Richard Saskind o'zining "Tomorrow's Lawyers" asarida ta'kidlaganidek, jamiyatning eng himoyasiz qatlami uchun yuridik yordam — bu ijtimoiy liftning ajralmas qismidir [6]. Ularning uy-joy olish va mehnat huquqlarini himoya qilishda davlat hisobidan advokat berilishi, ularning jinoyat yo'liga kirib ketmasligi yoki ijtimoiy chetlashib qolmasligini kafolatlaydi. Ularning ijtimoiy moslashuv davrida huquqiy himoyasini ta'minlash davlatning strategik majburiyatidir. Bundan tashqari, **mehnat migrantlari** (ichki va tashqi) masalasida Janubiy Koreyaning "Legal Aid Corporation" (KLAC) modeli o'ziga xosdir. U yerda ish beruvchi tomonidan ekspluatatsiya qilingan yoki ish haqi to'lanmagan migrantlarga bepul yuridik yordam berish orqali mehnat bozoridagi muvozanat ta'minlanadi [7]. Bu BMTning "Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi konvensiyasining (18-modda) ijrosini ta'minlovchi mexanizmdir [10]. Shunday ekan davlatimiz tashqarisidagi yoki o'zimizda ishlayotgan mehnat migrantlarining xotirjam ishlashi, qonuniy himoya huquqi mavjudligi va ularning huquq va majburiyatlarining ta'minlanishi nafaqat yurtimiz fuqarolarining balki boshqa yurt vakillarining huquqini ham ta'minlashdir.

Shuningdek, **Penitensiar tizim, keksa yoshdagi shaxslar keksalar va muomala layoqati cheklangan shaxslarga** o'z navbatida "**Huquqiy qalqon**" zarurati mavjud. Jumladan, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning ma'muriyat ustidan shikoyat qilish yoki qiynoqlar bo'yicha mustaqil advokat yollash imkoniyati nihoyatda cheklangan. Shu bilan birga 70-75 yoshdan oshgan shaxslarga yuridik yordam berishda "kam ta'minlanganlik" mezonini bekor qilish taklifi inson qadrini ulug'lash prinsipiga tayanadi. Keksalar ko'pincha uy-joy firibgarligi (fraud) qurboni bo'lishadi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining (ECHR) *Airey v. Ireland* ishi bo'yicha chiqargan qarorida ta'kidlanganidek, "huquqlar nazariy va xayoliy emas, balki amaliy va samarali bo'lishi kerak" [4]. Shu nuqtai nazardan, **sayyor (vyezdnoy) yuridik xizmat** ko'rsatish majburiyati harakatlanish imkoniyati cheklangan keksalar uchun adolatga kirishning yagona yo'lidir. Shuningdek, shaxsni muomala layoqatidan mahrum qilish jarayonida mustaqil advokat ishtirokini majburiy qilish, qarindoshlarning g'arazli maqsadlarini jilovlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari yurtimiz hayotida yana bir muhim sub'ektlar qatlami borki ular hech qanday moliyaviy manfaatni ko'zlamasdan beg'araz xizmat ko'rsatuvchi, aholining zaif qatlamlarining huquqiy, siyosiy va jamiyatda o'z o'rnini topishga yaqindan yordam ko'rsatib kelayotgan nodavlat va no tijorat tashkilotlari hisoblanadi. Ushbu sub'ektlarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish bu o'z navbatida **Institutsional yondashuv** hisoblanadi.

Ijtimoiy sohadagi **nodavlat notijorat tashkilotlariga (NNT)** yuridik ko'mak berish — bu bilvosita jamiyatning eng zaif qatlamlarini himoya qilishdir. BMT standartlariga ko'ra, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy himoya qilinishi — demokratik nazoratning asosidir [3]. Agar nogironlar huquqini himoya qiluvchi NNT noqonuniy tekshiruv yoki ma'muriy to'siqqa uchrasa, bu tizimli ravishda ushbu NNT vakillik qilayotgan shaxslarning huquqlari buzilishiga olib keladi.

Xalqaro huquqda, ayniqsa nogironlar va bolalar huquqlarini himoya qiluvchi kichik NNTlarga yuridik konsultatsiya berish — bilvosita zaif guruhlarni himoya qilish deb baholanadi [4]. United Nations hujjatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining odil sudlovga kirishi demokratiyaning muhim elementi sifatida ham qayd etilganligini atab o'tish o'rinli.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan fikirlar va kiritilishi lozim bo'lgan yangi sub'ektiv qatlamlar nafaqat ushbu toiyfaga mansub shaxslarning balkim barcha fuqarolar va jahon keng jamiyatining nazlindaham davlat va uning sud-huquq tizimiga ishonchni ortiradi, fuqarolar tomonidan esa davlatni himoya qiluvchi institut sifatida qabul qilish unga ishonish hamda ochiq muloqatga kirishish holatini yanada orttiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, «Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasiga taklif etilayotgan o'zgartirishlar shunchaki texnik yangilanish emas, balki inson qadrini yuqori bosqichga ko'taruvchi konseptual islohotdir.

Birinchidan, tazyiq va zo'rvonlik qurbonlari uchun moddiy ahvolidan qat'i nazar bepul yuridik yordam berilishi, jabrlanuvchining tajovuzkor oldidagi moliyaviy zaifligini bartaraf etadi va ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro konvensiyalar ijrosini ta'minlaydi [8].

Ikkinchidan, keksa yoshdagi shaxslarga nisbatan «byurokratik to'siqlarni» olib tashlash, ya'ni 70-75 yoshdan oshganlarga daromadidan qat'i nazar yordam berish hamda mulkiy nizolarda advokat ishtirokini majburiy etib belgilash — ularning boshpanasiz qolib ketishining oldini oluvchi «huquqiy qalqon» vazifasini bajaradi. Richard Saskind ta'kidlaganidek, odil sudlovga erishishda asosiy to'siq nafaqat xarajat, balki jarayonlarning murakkabligidir [6]. Shu bois, sayyor (выездной) advokatlik xizmatining joriy etilishi harakatlanishi cheklangan shaxslar uchun «adolatli sudlanish» huquqini real amaliyotga aylantiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy sohadagi NNTlarning huquqiy himoya qilinishi — bu bilvosita minglab nogironlar, bolalar va muhtoj shaxslarning manfaatlarini himoya qilish demakdir. Bu OHIH (OECD) tavsiyalarida nazarda tutilgan «innovatsion yuridik yordam» modellariga to'liq mos keladi [9].

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinmi, ushbu takliflarning qonuniy mustahkamlanishi O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi imijini yaxshilash bilan birga, jamiyatning har bir a'zosi davlatning real himoyasini his qiladigan insonparvar huquqiy tizimni barpo etishga xizmat qiladi. Ushbu islohotlar O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlaydi va har bir shaxsning davlat himoyasini real his qilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (30.04.2023y.) <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш тўғрисида. <https://lex.uz/docs/6491033> [8]
3. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). United Nations Principles and Guidelines on Access to Legal Aid in Criminal Justice Systems. https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/UN_principles_and_guidelines_on_access_to_legal_aid.pdf
4. European Court of Human Rights (ECHR). Guide on Article 6 - Right to a fair trial (civil limb). https://www.echr.coe.int/documents/guide_art_6_civil_eng.pdf

5. Organic Law 1/2004 of Spain. Integrated Protection Measures against Gender Violence. <https://www.boe.es/buscar/act.php?id=BOE-A-2004-21760>
6. Susskind, R. Online Courts and the Future of Justice. Oxford Academic. <https://academic.oup.com/book/34893>
7. KLAC - Korea Legal Aid Corporation. Legal Aid for Foreigners and Migrant Workers. <https://www.klac.or.kr/eng/main.do>
8. [1] FRA - European Union Agency for Fundamental Rights. Access to justice for victims of domestic violence. <https://fra.europa.eu/en/publication/2023/domestic-violence-access-justice>
9. OECD. Legal Aid Services: Leveraging Technology and Innovation. <https://www.oecd.org/governance/justice/>
10. [2] International Labour Organization (ILO). Protecting the rights of migrant workers through legal aid. <https://www.ilo.org/global/topics/labour-migration/lang-en/index.htm>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.